1991-yildan
chiqa boshlagan

2021-yil. 3-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

8-MART ARAFASIDA 28 NAFAR QIZ ZULFIYA NOMIDAGI DAVLAT MUKOFOTI BILAN TAQDIRLANDI

Ushbu sonda

Dars – muqaddas
Tilimizni kim sevmaydi? 3-bet

Tahlil
Jadid adiblari oilaviy qadriyatlar haqida 20-bet

Tadqiqotlar
O'zbek tilida ko'p ma'noli somatik frazemalar va ularning uslubiy bo'yog'i 27-bet

Литературоведение
Воссоздание среднеазиатского колорита в повести Андрея Платонова «Джан» 68-bet

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ПРЕПОДАВАНИЕ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2021-yil. 3-son.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 2021.31.03.da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x841/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasi. 10, 11 kegl. «Eko textile produkt» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 4900 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

Adiba BEKCHANOVA. Tilimizni kim sevmaydi? 3

Oydin MO'MINOVA. Monologik nutqni o'stirishda matn yaratish texnologiyasi 5
Akmal ABDULLAYEV. Badiiy so'z – nafosat eshigin ochguvchi kalit 7
Gulnoza QURBONOVA, Shahlo YULDASHOVA. Mustaqil ishni tashkil etish tamoyillari 9

Nilufar KARIMOVA. Soft skills: xorijiy davlatlar tajribasi 11

Shaxnoza CHORIYEVA. Urushda qatnashmagan yozuvchilar asarlarining "Yo'qotilgan avlod" adabiyotidagi o'ziga xos o'rni 13
Muyassar TILOVOVA. Badiiy tahlilda fenomenologik psixologiyaning ahamiyati 15
Muxlisa SABIROVA. Gazeta matnlarining performativ xususiyati 17
Feruzaxon KARIMOVA. Dialog va uning monologik nutq bilan kesishuv nuqtalari 18
Rustam SHARIPOV. Jadid adiblari oilaviy qadriyatlar haqida 20
Gulchehra DARVISHOVA. Sharlotta Bronte romanlarida ayolning jamiyatdagi o'rni masalasi 22

Shavkat NISHONOV. Adabiy ta'lim jonkuyari 23
Mahbuba TOJIBOYEVA. Sendan seni izlagan Ubaydulloh 25

Umida RASHIDOVA. O'zbek tilida ko'p ma'noli somatik frazemalar va ularning uslubiy bo'yog'i 27

Manzura SHAMSIYEVA. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda nutqiy faoliyat holati 29
Jahongir TUROBOV. Avtoyo'lsozlik terminlarining shakliy strukturasi 31
Umida ALLAMUROTOVA. Illokutiv aktlar va ularning tarjimada berilishi 32
Umida DUSHAYEVA. Ispan tilida komparativlarning "adyektiv" tipidagi jumlalari 33
Nigora ABDULLAEVA. Ways of expressing contrasting opinions or ideas 34
Obidaxon FAYZULLAYEVA. Abdulla Qahhor hikmatlari – yoshlar uchun dasturulamal 36
Dilnoza MAMIROVA. Reklama matnlarida metaforaning o'rni 37
Dilorom ERPULATOVA. Ingliz va o'zbek tillarida murojaat so'zlarining lingvomadaniy xususiyatlari 38
Dilshada RAXMATULLAYEVA. Xitoy tili fonetikasi va uni o'qitish yo'llari 39
Marg'uba ABDULLAYEVA. Tarixiy asarlarda g'ayritabiiy tug'ilish motivi 41
Feruza HILOLIDDINOVA. Shekspir tragediyalarida olam va odam konsepti talqini 43
Feruza KHAYITOVA. The origin of english place names 44
Adiba YUSUPOVA. O'zbekcha realiya birliklar ishtirokidagi barqaror birikmalar persepsiyasi 46
Lutfulla SUVONOV. "Sadoi Farg'ona"ning hur sadolari 47

Мадинабону АХМЕДОВА. Особенности лирики Э.Вахидова и А.Арипова 49
Татьяна СТЕПАНКОВА. И.С.Тургенев. «Русский язык» 51

Ситора РАХМОНОВА. Методические разработки по грамматической теме «Род имен существительных» 53
Инобат ТУРСУНОВА, Наима ХАИТБАЕВА. Теоретические и практические проблемы формирования лексико-семантических групп при создании учебного материала в сфере избранной специальности 56

Светлана ЯРЦЕВА. Когнитивный аспект языковой интерференции 58

Дилдора ТОЛИПОВА. Актуальность изучения текста в преподавании русского языка 60
Нигина АЛИБОЕВА. Функции детской литературы 61

Ойдин СОМСАКАЛИЕВА. Актуальность изучения имен собственных в лингвокультурологическом аспекте 63

Майя ЭМ. Вариантность некоторых глагольных компонентов во фразеологических словарях краткого объема 65

Беккенбауэр РЕЙМОВ, Саида СУЛТАНОВА. Сигнальная функция компонента қол (рука) в прототипических ситуациях, представленных в именных каракалпакских фразеологизмах 66

Рубен НАЗАРЬЯН. Воссоздание среднеазиатского колорита в повести Андрея Платонова «Джан» 68
Агата ОСИПОВА. Историко-теоретический подход к проблеме жанра в современном литературоведении 69
Саидмурод ХОЛБЕКОВ. О новом художественно-изобразительном средстве 71

Шахло БОТИРОВА. Методология преподавания литературы и чтения 72
Сайёра ИБРАГИМОВА. Формирование профессиональных знаний в учебе – залог успеха в работе 73

Бахтиёр ДАНИЯРОВ. О многоаспектном комплексном исследовании семантической структуры и своеобразия употребления синонимов 75
Конисбай ЮСУПОВ. Изучение художественных произведений в академических лицеях 78

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ПРЕПОДАВАНИЕ LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING *jurnali*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

hayot va odamlarning qadriga yetadigan oliyjanob qalb egasi sifatida ham kishini hayratga soladi. Shuning uchun Bobur shaxsiyati va u haqidagi asarlar hayotni sevish, qadrlash ilmini ham bizga o'rgatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bunday tizimlashtirilgan topshiriqlar talabalarning quyi bosqichlarda o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini turli vaziyatlarda amalda qo'llay olish malakasini shakllantirishga yordam beradi hamda ularning bog'lanishli monologik nutqini rivojlantiribgina qolmay, mustaqil fikrlash faoliyatini ham o'stiradi. Matn ustida ishlashdan ko'zlanadigan asosiy maqsad talabaga mukammal matn haqida atroflicha tushuncha berish, undagi ijodiy tafakkur mexanizmini harakatga keltirish, aniq yo'nalishda, izchil, mantiqli mushohada yuritishga, fikr mahsulini yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga tayyorlashdan iborat. Ushbu faoliyat talabalarni matn turlarini farqlashga o'rgatish, matndagi gaplarni analiz va sintez qilish, imloviy va uslubiy nuqsonlarni farqlash va bartaraf qilish, matn mazmunini ochib beradigan, badiiy bo'yoqdor so'zlarni guruhlash va tanlash, fikrni aniq, izchil va ravon ifodalash, matndan to'g'ri xulosa chiqarish ko'nikmalarining shakllantirilishi va mustahkamlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007.
2. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2013.
3. Yo'ldoshev R. Uzluksiz o'zbek tili ta'limida yondashuvning tatbiqiga doir // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2008. 5-son. 20–24-betlar.

Akmal ABDULLAYEV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
Til va adabiyot o'qitish kafedrasi o'qituvchisi

BADIIY SO'Z – NAFOSAT ESHIGIN OCHGUVCHI KALIT

Istiqloldan so'ng boshqa fanlar qatori ishlab chiqilgan va qabul qilingan adabiy ta'limning davlat ta'lim standartida undan ko'zlangan maqsadga "*Maktabda adabiyot bolalarga shuning uchun ham o'rgatiladiki, badiiy adabiyotsiz inson to'la ma'noda shaxs bo'lib shakllana olmaydi. Badiiy asarlarni o'qish, tushunish, ta'sirlanish va tahlillay olish inson ma'naviyatidagi asosiy jihat bo'lmish o'zgani anglash, uning tuyg'ularini his etish, dardkash bo'la bilish sifatlarini shakllantiradi*" [1: 7], deya to'g'ri ta'rif berilgan.

Inson ma'naviyatini shakllantirishda badiiy adabiyot eng katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan vositadir. Ayni shu jihat adabiy ta'limning dastur va darsliklarida o'rganish ko'zda tutilgan badiiy matnlardan insonning pokiza va nozik sezimlarini shakllantirishga qo'l keladigan tarzda istifoda etish ishlarini izlab topish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Bugungi kun adabiyot metodikasi ilmining yutug'i o'laroq ishlab chiqilgan darslik va metodik qo'llanmalarda o'rganiladigan har bir badiiy asarga, avvalo, estetik butunlik va ma'naviyatni shakllantirish omili tarzida yondashish tamoyili yetakchilik qilmoqda. Mustaqillikdan keyingi maktab adabiy ta'limida adabiyotni so'z san'ati sifatida o'rganishga o'tilishi dars mashg'ulotlari davomida, shuningdek, darsdan va sinfdan tashqaridagi mashg'ulotlar jarayonida, dasturda berilgan adabiy asarlar, xususan, mumtoz badiiy namunalarni o'rganish jarayonida so'zning poetik serqirra ma'nosi, undagi badiiy tasvirni ilg'ashga bo'lgan kuchli ehtiyoj tufayli mumtoz so'z san'atkorlarining badiiy mahorat masalalarini birmuncha kengroq va chuqurroq tahlil qilishni taqozo etmoqda. Bu esa, bugungi kun maktablarining adabiyot fani o'qituvchilari, qolaversa, o'quvchilar bilishi nihoyatda zarur bo'lgan ko'p asrlik mumtoz adabiyotimizning bezavol xazinasini yaratgan ulug' shoir va nosirlarimizning so'z qo'llashdagi san'atkorlik salohiyatlari, nuktapardozlik sehrini kashf etish uchun ularning barchalariga zamin bo'lib xizmat qilgan badiiyat asoslaridan biri – she'riy san'atlar haqida atroflicha nazariy va amaliy ma'lumotga ega bo'lishni talab qiladi. "*Aruz ilmidan bexabar o'qituvchi yoki o'quvchi ming yillik adabiyotimiz tarixida yaratilgan nodir asarlarni ifodali o'qiy olmaganidek, she'riy san'atlar va qofiya ilmidan uzoq kishilar buyuk bobokalon shoirlarimizga xos yuksak badiiy salohiyat mohiyatini anglab yetishlari mahol*". [2: 3]

Mumtoz adabiy matnlarning mazmunini tushunish, his etish uchun uning poetik qirralarini chuqur tahlil qilish, estetik badiiyatini anglab yetish lozim. Buning uchun adabiyotda badiiyatni yuzaga keltiradigan poetik vositalar, ularning semantik-stilistik xususiyatlarini maktab adabiyot kursida o'quvchilarga o'rgatishning metodik asoslarini ishlab chiqish alohida tadqiqot manbayi bo'lib turibdi.

Qoliplashgan nazariy qoidalarni o'rgatishdan qochishga urinilayotgan bugungi adabiy ta'limda she'riy san'atlar haqidagi nazariy ma'lumotlarni o'quvchiga o'rgatishning zarurati bormi? Bor, albatta. Sababi, she'riy san'atlar haqidagi nazariy bilimlarni o'quvchi o'rgansa, bu bilimlar o'qilgan asarni chuqur tushunib, undan olinadigan estetik zavqning ikki barobar ko'p bo'lishiga ilmiy zamin hozirlaydi.

Maktab adabiyot kursida berilgan mumtoz badiiyat namunalaridan haqiqiy badiiy-estetik zavq olish uchun o'quvchi, avvalo, adabiy matndagi har bir satrni ma'nosini anglagan holda o'qib-o'rganishi, "*hazm qilinishi qiyin bo'layotgan*" so'zlarning matnda "*zimmasiga yuklangan*" ma'nosini, "*yuk*"ni tashiyotgan badiiy tasvir vositalarini aniqlab, shundan so'nggina matn tahliliga kirishishi lozim bo'ladi.

Adabiy ta'lim natijadorligi har bir o'quvchida qanchadir miqdorda badiiy-estetik tuyinish va hissiy "lazzatlanish" tuyg'usi shakllanganligi bilan o'lchanadi. Bu tuyg'uni shakllantiradigan badiiy unsurlar badiiyatning har bir namunasidagi hayotiy bir falsafiy fikr, jozibali bir tuyg'u, ko'ngildagi ruhiy tugunning ajib ifodasi yoki yechimi, kuchli axloqiy-ta'limiy fikr va go'zal badiiy tasvir vositalaridir.

O'zbek mumtoz adabiyotining Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodira va Muqimiy kabi barkamol namoyandalari ijodidagi badiiy go'zallik, nafosat, umrboqiylikning sir-asrori, avvalambor, ular asarlarining milliyligi, xalq diliga, ruhiyatiga mosligi, ayni chog'da go'zal o'xshatishlar, o'tkir so'z o'yinlari, musiqiylikka boyligidadir. "*She'r zavq hayajonining natijasi bo'lib, u shaxsning ruhiy olami bilan shavqiga uning zavqi orqali ta'sir ko'rsatadi. Zavqni qo'zg'atuvchi asosiy omil badiiyatdir*". [3: 30]

Badiiyat – asarning tashqi dunyosi, ta'bir joiz bo'lsa, uning libosi. Asar qanchalar badiiy jihatdan yetuk, barkamol va go'zal bo'lsa, u shunchalar kishi ruhiyatiga tez va kuchli ta'sir ko'rsatadi, uni hayajonga soladi, unda kuchli ehtiroslarni qo'zg'aydi. Bu yerda yana inson ruhiyati bilan bog'liq ko'pgina jihatlar ham bor. Masalan, kishi go'zal manzarani ko'rsa, zavqlanadi, qalbi, shodlikka to'ladi, shu bilan birga u o'z diliga go'zal hislar quyilganini, ruhiyatida ko'tarinkilik yuz berganini sezadi. Ohangdor so'zlar, chuqur ma'nolar bilan bezatilgan badiiyat namunasi o'quvchini o'ylantiradi, mushohada yuritmoqqa chorlaydi, lirik nafosatning sehrli olamiga g'arq etadi, uni zavqlantiradi.

Asarning badiiyati, unda qo'llanilgan badiiy-tasviriy vositalar, she'riy san'atlar uning jozibadorligini ta'minlaydi. Asarning mazmun-mohiyati uning ma'lum bir maqsad – g'oyani qay tarzda aks ettira olganligida ko'rinadi. Bu borada ijodiy iste'dod, tilning lug'aviy imkoniyatlari shoirga muayyan ijtimoiy-lisoniy doirada o'z badiiy g'oyasini original misralarda aks ettira olish imkoniyatini beradi. Binobarin, adib so'z kaliti orqali o'qirmanga badiiy nafosat olamining yangi eshigini ochadi. Mumtoz adabiy matnlarda qo'llangan she'riy san'atlarni o'rganish bo'yicha dasturda berilgan nazariy ma'lumotlar o'rganiladigan mumtoz badiiy asarning mazmuniga eltadigan "*eshik*"ni ochuvchi ilmiy "*kalit*"lardan biri hisoblanadi.

Badiiylik olam va odam serqirraligini his qilish, in'ikos etishning mehvaridir. Bularning hammasi yosh avlodning komil inson bo'lib yetishishlarida ma'naviy va badiiy tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, she'riy san'atlar badiiy asardan o'rin olgan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyligi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan g'oya o'z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko'lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo'llangan she'riy san'atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilinadi.

Maktab adabiy ta'limida berilgan mumtoz adabiy namunalarda qo'llangan she'riy san'atlar o'zining badiiy-estetik jozibasi bilan o'quvchi qalbida hissiy kechinmalar uyg'otishi sababli undan zavqlanishga erishtiradigan estetik kategoriyalarni o'zlashtirish, bilish katta ahamiyat kasb etadi. Shaxs ma'naviyatini shakllantirish vositasi bo'lgan adabiy ta'limda hissiyotga ta'sir etish, tuyg'ular tarbiyasi asosiy masala hisoblansa-da, o'quvchilarning *nimadan? nima uchun?* ta'sirlanganligini bilish ham muhim ahamiyatga ega. *O'quvchi uchun mumtoz badiiyatdan hissiy ta'sirlanishning o'zigina yetarli bo'lmay, uning estetik jozibasini ta'minlagan, ta'sirlanishga olib kelgan estetik kategoriyalarni o'zlashtirish, bilish ham muhim o'rin tutadi.* [4: 178] Nazariy tushunchalarni maktabda o'rganish ayni shu zaruriyatdan kelib chiqqani shubhasiz. Mumtoz adabiy ta'limda she'riy san'atlar haqidagi nazariy tushunchalarni o'rganish maqsad emas, mumtoz badiiy asarni chuqur tahlil etish darajasiga erishish vositasi hisoblanadi. Sharq mumtoz badiiy adabiyotida tasvir obyektini yoritishda nafis she'riy san'atlar eng asosiy badiiy vositalar bo'lganligi va ularning badiiy asar mazmuni va undagi obrazni qay darajada mumtoz adabiyotda mukammal aks ettira olish sabablari hamda yo'llari haqida bahs yuritish maktab adabiy ta'limining nazariy vazifasidir. *Maktabda adabiyot o'qitishning vazifalari sirasiga badiiy asarni estetik mushohada qiluvchi tarbiyalanuvchidan estetik faoliyat ko'rsatuvchi o'quvchi tayyorlash kerakligi ham kirishini ko'zda tutish joiz.* [5: 42-bet].

Yangilangan milliy ta'lim tizimida tarbiyalanuvchini yoshlikdan mustaqil fikrlashga o'rgatish ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishning bosh omili sifatida belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda adabiy ta'limda o'quvchilarni mustaqil mushohada yuritishga, badiiy hodisalarga ijodiy yondashishga o'rgatishning asosiy vositasi sifatida ularni imkon qadar ko'proq adabiy bahs-munozaraga chorlash samarali hisoblanadi. Bu, ayniqsa, mumtoz adabiy matnlar hamda ularda qo'llangan she'riy san'atlarni o'rganish bilan bog'liq dars mashg'ulotlarida zarur tashkiliy-metodik jarayon sanaladi.

Mumtoz badiiyat va unda qo'llangan nafis so'z san'atlari o'quvchilarga ularni qalban anglash, ijodiy fikrlash hamda mushohadaga o'rgatuvchi san'at turi sifatida o'tilsa, yoshlarning komil inson bo'lishlarida beqiyos ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar mumtoz asarlarni tushunib yodlashni, ulardagi badiiy so'z jilolari va tagma'nolarini hayot, inson ruhiyati bilan bog'lab tahlil etishni o'rgansalar, mumtoz adabiy ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev Q., Husanboyeva Q. Umumiy o'rta ta'lim davlat standarti. Adabiyot. Ta'lim taraqqiyoti. O'zRXTV axborotnomasi, 1-maxsus son. – Toshkent: Sharq matbaa konserni, 1999.
2. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998.
3. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
4. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolari va yechimlar. Monografiya. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
5. Yo'ldoshev Q. Adabiy saboqlar: umumta'lim maktablarining 7-sinf "Adabiyot" darsligi uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: Bilim, 2003.